

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC
PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHIGA
TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY- PSIXOLOGIK OMILLAR**

Shadiyev Feruz Djaxonovich

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutqiy rivojlanishni nazorat qilish muhim amaliyot hisoblanadi. Ushbu jarayon turli ta'sir ostida o`zgarib, rivojlanib borishi ma`lum. Maqolada nutqiy rivojlanishga ta`sir etuvchi omillar hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tashxislash bosqichlari hamda mazkur bosqichlarga mos logopedik tekshiruv metodikalarini yaratish muammosi talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim muassasasi, defektolog, logopedik yordam, logopedik tekshiruv, metodika, nutq nuqsonlari, rivojlanishdagi kamchiliklar.

KIRISH

Inson o‘zining hayotidagi faoliyatida, shart-sharoitlarida, turmush tarzida nutq madaniyati bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham har bir inson o‘zining xatti-harakatiga, muloqotiga va maqsadiga tashqaridan turib qarashi lozim. Albatta bunda egallagan bilimlar nutq faoliyatining maqsadli bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga bilimlar insonning haqiqatiga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishga, turmushga, ongiga, hayotiga ta’sir etadi. Ya’ni bilimlar nutq faoliyatining, madaniyatining asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy logopediyamizda ishlab chiqilgan aksariyat an'anaviy tekshiruv metodi- kalari (L.R.Mo‘minova, M.Yu.Ayupova, D.A.Nurkeldieva, N.Z.Abidova, Sh.M.Aripova va boshqalar [1-6]) ma'lumotlarni sifat jihatdan taxlil etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, nuqsonni chuqur o‘rganishga qaratilgan va odatda, katta

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

hajmli, amaliy jihatdan aynan tezkor saralash davrida qo'llash uchun biroz noqulaylik qiladi. Mazkur metodikalar, bolalarni individual tekshirish uchun yaratilgan bo'lib, saralangan bolalardagi nuqsonning xususiyatlarini tekshirish, uning tuzilishi va og'irlilik darajasini har tomonlama chuqr o'rganishga qaratilgandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jahonda maktabgacha tarbiya davridan boshlab bolaning kognitiv sohasini rivojlanishi, boladagi egotsentrik nutq, nutq va tafakkurning uzviyligi, muloqot motivlarining shakllanishi borasida qator izlanishlar olib borilmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha yosh davridan bolalarning intellektual, kommunikativ, hissiy jihatdan rivojlantirish masalalarida muloqot usullarini tanlash, xulq-atvori shakllanishida shaxslararo munosabatlar ta'sirini aniqlash, uning tengdoshlari guruhida referent o'mini qaror toptirish va barqarorlashtirishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, inson shaxsiga bolalik davridan oliv qadriyat sifatida yondashish, uning muloqotini ijtimoiy-hissiy jihatdan shakllantirish orqali uning uchun bevosita ahamiyatli bo'lgan kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy muloqot ko'nikmalarini o'rnatishda zarur bo'lgan ijtimoiy muhitning rivojlantiruvchi va ingibitsion (tormozlovchi) ta'sirini aniqlash asosida ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, psixolog-mutaxassislar faoliyatiga zarur bo'ladigan psixologik yo'riqnomalarni yaratish masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Maktabgacha yosh davrida bolani muloqotga o'rgatishning o'yin va xalq og'zaki ijodi, muloqot odobi shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta, shuningdek ta'lim faoliyatiga norasmiy muloqot elementlarini kiritish, didaktik, ijodiy, syujetli rolli o'yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini tarbiyachi emas, bolalar bajarishiga e'tiborni qaratish lozim. Bola shaxsining uyg'un shakllanishi uchun o'yinning ahamiyati beqiyosdir. Bola o'yin yordamida ba'zi

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

maqsadlarni belgilashni o‘rganadi va ularga erishishga intiladi. O‘yin bolada ixtiyoriy aqliy jarayonlarni rivojlantiradi (xotira, diqqat va boshqalar). O‘yinda emotsiyal dalda berish bola uchun qo‘srimcha rag‘batga aylanadi. O‘yin davomida mantiqiy nutq, muloqot, nozik qo‘l harakatlarini, shuningdek, obrazli va mavhum fikrlashni rivojlantirish osonlashadi. O‘yin – bu bolaning o‘zini namoyish qilishi va o‘zini o‘zi takomillashtirish usulidir.

Ma’lumki, ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutq va muloqot rivojlanadi. Chunki jamiyatda bola kattalar, tengdoshlar, tarbiyachilar va turli jamoalar qurshovida bo‘lar ekan, u savollar beradi, kuzatadi, mulohaza qiladi. Hayotiy voqeahodisalarni tushunishga, yaxshini yomondan ajratib olishga, o‘z harakatlarini davr talabiga moslashtirishga urinadi. Shuningdek, bola shaxsining rivojlanishi uchun faol muloqot va kundalik faoliyat zarur. Faoliyat va muloqot yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatda bo‘ladi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yuksaladi, xarakter sifatlari takomillashib, kamol topadi.

Olingen natijalardan ma’lum bo‘lishicha, sinaluvchilarning «Ota-onaga bo‘lgan munosabati» ko‘rsatgichi 5-6 yoshli o‘g‘il bolalarda «Onaga bo‘lgan munosabat» va «Ustunlikka intilish» shkalasi ko‘rsatgichi qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi kuzatildi. Buni birinchidan, bolalarning yoshi ortib borishi, gender va etnopsixologik xususiyati hamda hududiy xususiyatiga ko‘ra izohlash mumkin deb o‘ylaymiz.

5-6 yoshli bolalarning empirik ko‘rsatkichlari bo‘yicha korrelyatsiya koeffitsienti aniqlanganda yanada o‘ziga xoslik hamda 3-4 yoshli bolalarning natijalariga xoslik ham kuzatildi. Ushbu yosh bosqichdagi maktabgacha yoshdagilarning oila boshliqlari sifatida onaga bo‘lgan munosabati ijobiy ahamiyat hosil qilishi otaga bo‘lgan munosabatini, oila boshliqlari sifatida ota-onaga bo‘lgan munosabat, aka-ukaga, opa-singillariga bo‘lgan munosabat, tarbiyachisiga bo‘lgan munosabatni ham ijobiy bo‘lishini ta’minlamoqda.

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

Empirik ko'rsatkichlar o'zbek oilasida ona tarbiyachi sifatida bolaning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatining maromida kechishiga yo'naltiruvchi sifatida yetakchi rol o'ynar ekan. Maktabgacha yoshdagi bolalar esa faoliyat sub'ekti sifatida sotsiallashuv uchun zarur bo'lgan har bir muloqot elementini o'zlashtirishga harakat qiladi va shaxs sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma'lumotlar, xulosalar va ilgari surilgan g'oyalar maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot jarayoni ta'siri orqali shaxs xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik omillari to'g'risida muayyan nazariyaning shakllanishiga xizmat qiladi, olingan empirik natijalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ta'lim-tarbiya faoliyatlarida, ota-onalarning farzandlari bilan bo'lgan muomala munosabat faoliyatlarida, ushbu yo'nalish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar yaratishda, ommaviy axborot vositalarida mavzu doirasida maxsus ko'rsatuvlar, ruknlar, radioeshittirishlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash samaradorligi logopedik ishni rejalashtirish sifatiga, u esa o'z navbatida tashxislash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan, tashxislash natijalari korreksion-ta'limiy jarayon yo'nalishlarini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasi defektologining kasbiy burchlaridan biri faoliyat yuritayotgan muassasadagi barcha tayyorlov va katta guruhlardagi tarbiyalanuvchilarni nutqiy rivojlanishini muntazam ravishda tekshirib borish va korreksion yordamga muhtoj bolalarni saralashdir.

Muassasada tarbiyalanuvchilarning soni ko'pligi mazkur vazifani bajarish uchun vaqt tanqisligini keltirib chiqaradi. Tekshiriluvchi bolalarni turli yoshdaligi, kuzatiluvchi kamchiliklarning xilma-xilligi muammoni yanada chigallashtiradi va shu bilan birga umumiyl tekshiruv (saralash) uchun ajratilgan vaqt barcha bolalarning nutqiy rivojlanishini chuqur va sinchiklab tekshirish imkonini bermaydi. Bu esa o'z navbatida quyidagi qamchiliklarga olib keladi: defektolog tekshiruv uchun ajratilgan vaqtida qo'yilgan vazifani to'liq bajara olmaydi yoki faqat nutqning

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

fonetik tomonini tekshirish bilan chegaralanadi. Bu esa o‘z navbatida korreksion pedagogikaning tizimlilik tamoyiliga zid keladi. Shu bilan birga, mакtabgacha ta’lim muassasasi defektologi kichik va o‘rta guruhdagi tarbiyalanuvchilarning nutqini tashhislamaydi va kamchiliklarni erta tashxislash tamoyilini amalda qo‘llamaydi.

Xorijiy va milliy logopediyadagi nutqiy rivojlanishni tashxislashga qaratilgan turli metodikalarni tahlil qilish asosida logopedik tashxislash ekspress texnologiyasi ishlab chiqildi va aprobat siyalandi. Texnologiya mazmunini ishlab chiqishda maktabgacha yoshdagি bolalarni nutqini tekshirishga qaratilgan kompleks yondashuvli an’anaviy metodikalar bilan bir qatorda differensial tashxislashda yuqori ko‘rsatkichlarga ega zamonaviy “skrining-usullar” ham asos sifatida qo‘llandi. Bu esa defektologga qisqa vaqt ichida bolalarning nutqini rivojlanganlik darajasini kompleks tekshirish imkonini yaratadi.

Mazkur metodika umumta’lim muassasalaridagi o‘quv yilining boshi, birinchi yarim- yillik yakuni hamda o‘quv yilining yakunida nuqsonga ega bolalarni aniqlash maqsadida ko‘p sonli bolalarni tekshirishda nutqning barcha komponentlarini inobatga olish va shu bilan birgalikda vaqtidan unumli foydalanish imkonini yaratib, tekshiruvchining diqqati nutq malakalarini shakllanishining alohida tayanch yo‘nalishlariga qaratiladi. Mazkur yo‘nalishlardagi kamchiliklar bolada nutq nuqsonlarini mavjudligi haqida dalolat berib, uni to‘liq logopedik tekshiruvga yo‘naltirishga sabab bo‘ladi. Mazkur ekspress-tashxislash metodikasi asosida faqatgina nutqda ma’lum nuqson mavjudligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, nuqsonning sababi, turi, darjasи kabi hususiyatlari tekshiruvning keyingi differensial va fenomenologik tekshiruvlar asosida aniqlanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Tahlillar asosida umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida defektolog ish faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini belgiladik:

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

- logopedik tekshirish samaradorligi va to‘liq qamrovini ta’minlash maqsadida tashhislashni saralash (skrining) va tashhislash (differensial va fenomenologik) bosqichlariga ajratish1, saralash (skrining) tekshiruvi natijalariga ko‘ra har bir nutq nuqsoni uchun moslash alohida turdagи nutq haritasini to‘ldirish;
- mактабгача та’лим ташкilotida o‘qituvchi-defektolog faoliyatining hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari orasida nutq nuqsonlarining (rivojlanishdagi nuqsonlarning) tarqaganligi o‘ziga hos xususiyatlarini inobatga olgan holda fonetik nutq kamchiliklari, fonetik-fonematik nutq kamchiliklari nutqning to‘liq rivojlanmaganligi hamda duduqlanishga ega tarbiyalanuvchilar nuqson turi, shakli va darajasiga, shu bilan birga tarbiyalanuvchining yosh, bilish faoliyati xususiyatlariga ko‘ra, har bir bolaning ta’limiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda logopedik ta’sirni faqat yakka va kichik guruhi (2-3 nafar bola) shaklida o‘tkazish, amaliyotda o‘tkazib kelinayotgan guruhli nutqni o‘stirish hamda to‘g‘ri tovush talaffuzini shakllantirish mashg‘ulotlaridan voz kechish hamda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi kabi og‘ir nutq nuqsonlariga ega bolalar uchun yakka korreksion-rivojlantiruvchi dastur tuzish;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog hodimlari orasidagi hamkorlikni oshirish maqsadida har bir pedagog hodimda mavjud va alohida yuritiladigan “Pedagoglar bilan o‘zaro hamkorlik ish rejasi” ni qo‘shma tarzda yagona ish jurnali shakliga keltirish.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Обучение и обучение фонетически и фонематически недоразвитых дошкольников: программа и методика. рекомендации для дошкольных учреждений. упражнения компенсаторного типа (большая группа). - М.: «Просвещение», 2012, 58 заложений.
2. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu. nutq terapiyasi. - T .: O‘qituvchi, 2012, 77-79 betlar.

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

3. Денисова Н.Е. Экспресс-диагностика детей первого года обучения с проблемами речевого развития // Дефектология. - 2018. - Вып. 2, стр. 49-51.
4. Коноваленко В.В., Коноваленко С.В. Экспресс-обследование звукопроизношения у детей дошкольного и младшего школьного возраста: пособие для логопеда. - М.: «Гном-Пресс», 2020, с. 2-14.
5. Фотекова Т.А. Тестовый метод диагностики устной речи младших школьников. - М.: АРКТИ, 2020. - 56 с.
6. Волкова Г.Л. Изучение психолого-логопедической помощи детям с речевыми нарушениями. - СПб.: Книжное издательство "Сайма", 2013. С. 12-25.